



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Gulbahor Alimovna Shakirova

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

XORIJIY TILNI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNI QO'LLASH

Annotatsiya: Til o'rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o'qituvchining bilimi, ijodkorligi, talabalarni o'z faniga nisbatan muhabbatini uyg'ota olishi, talaba bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish hozirgi davr talabini taqozo etadi. Qaror chet tillarini o'rgatishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlariga muvofiq umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun chet tillarini yuqori darajada egallagan malakali o'qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida qabul qilindi. Shu bilan birga aytish joizki, har bir o'rganilayotgan tilning o'ziga xos qonun-qoidalari, sir-sinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo'lish uchun o'rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, sun'iy aql, ochiq ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlardan foydalanish axloqi.

New pedagogical technologies in foreign language teaching

Gulbahor Alimovna Shakirova

Kattakurgan branch of Samarkand State University



Abstract: In order to identify and identify opportunities in language teaching, the teacher's knowledge, creativity, ability to arouse students' love for their subject, to establish a cooperative relationship with the student is a modern requirement. The decision is aimed at further development of foreign language teaching, implementation of measures to improve the level and quality of training of highly qualified teachers of foreign languages for secondary schools, vocational colleges and academic lyceums, higher education institutions in accordance with international standards. was adopted in order to ensure. At the same time, it should be noted that each language studied has its own rules and secrets. In order to become a professional who meets international standards, the learner is required not to overlook the most delicate layers of language.

Keywords: pedagogical technology, artificial intelligence, open database, ethics of data use.

So‘nggi yillarda ta‘lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogic texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi - yangi pedagogik - psixologik tushunchalar, interfaol metodlar ta‘lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanilib borilishi, ta‘lim mazmunini tubdan o‘zgartirib, yubordi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kundagi sur‘at bilan rivojlanayotgan dunyo aholisining ko‘pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Albatta, bu tillarning dastlabkisi o‘zining ona tilisi bo‘lib, ko‘pchilik tilshunoslar nafaqat o‘rganilayotgan chet tilini, balki ona tilini o‘zlashtirish uchun ham alohida sharoit yaratilishi kerak deb hisolaydilar. Ta‘kidlab o‘tish joizki, xorijiy tillarni o‘rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida o‘zib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta‘lim muassasasidan tortib oliy ta‘lim muassasasigacha ona tili va chet tilini bir paytning o‘zida taqqoslab o‘rganadilar.

Tilshunoslikda mavjud ilmiy-tadqiqot metodlari orqali o‘zaro genetik bog‘liq va o‘zaro genetik bog‘lanmagan til oilalariga tegishli bo‘lgan, xalqaro va millatlararo aloqada yuksak darajaga va tajribaga ega bo‘lgan tillarni qiyoslash orqali o‘rganish bir muncha oson bo‘lishi ilmiy isbotlangan haqiqatdir.

Hozirgi kunda yurtimizdagi ta‘lim sohasini tubdan chet tillariga tadbiiq qilish maqsadida yaratilayotgan darsliklar, o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar ham ayni shu maqsadlarning amaldagi isbotidir. Binobarin, o‘z tili va madaniyatini puxta bilgan o‘quvchigina boshqa tillarga mehr qo‘yib o‘rgana oladi. Chet tillarini o‘zlashtirish shu kabi maxsus tayyorgarliklarni talab qiladi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi – Ikkinchi tilga bo‘lgan zaruriyat nima?

Mamlakatimizning kelgusidagi istiqboli uchun mustahkam poydevor yaratishni maqsad qilgan birinchi Prezidentimiz O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga shiddat bilan kirib borishini ta‘minlash uchun eng dolzarb hisoblangan chet tillarini o‘rganishga qaratilgan bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqdi. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi №1875 - qaroriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning tub mohiyati butun O‘zbekiston hududida yoshlar ta‘limiga chet tillarini uzviy bog‘lash, yosh avlodning o‘z fikrini boshqa bir tilde benuqson ifodalay olishini ta‘minlashdan iborat. Xususan, ushbu qarordan quyidagi islohotlar o‘rin egallagan:



- Respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, chet tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;
- oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib boriladi;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari va o'qituvchilarini chet tillar bo'yicha darsliklar va o'quv-uslubiy komplekslar bilan ta'minlash, ularni belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qayta nashr etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining aylanma mablag'lari hisobidan bepul amalga oshiriladi" 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №1875 - qarori.

Ushbu qaror O'zbekiston ta'lim tizimida tub burilish yasadi. Yosh avlod uchun yangi darsliklar yaratildi, chet tili maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab o'rgatila boshlandi. Oliy ta'lim muassasalarida ham ayrim fanlar chet tilida olib borilyapti.

Chet tillarini o'rganish orqali dunyo yoshlarining intellektual salohiyatidan boxavar bo'lish, ular bilan fikr almashish, jarayonni chuqur tahlil qilib o'z yutuq va kamchiliklarimizni ularniki bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Chet tillarni bilishga intilish, "Til bilgan el biladi" maqoliga ko'ra ish tutish bizning ko'p tilni bilgan Forobiy, bir nechta tillarni qiyosiy o'rganish darajasida keng mushohadali bo'lgan Qoshg'ariy kabi yetuk ajdodlarimizdan merosdir.

Bundan tashqari Abdulla Avloniyning 1913-yil "Oyna" jurnalida chop etilgan "Ikki emas to'rt til lozim" maqolasida ham dunyo bilan hamnafas bo'lish uchun til o'rganish kerakligi atroflicha izohlangan. Buyuk bobokalonlarimiz o'zlarining ilmfan sohasidagi yangiliklari, beqiyos asarlarini boshqa xalqlarga ham o'z tilida yetkazib bera olganliklari uchun ularni butun dunyo taniydi, e'tirof etadi. O'rta Osiyo ilm-fani, madaniyat va ma'rifati e'zozlanadi. Bularning barchasi zamirida qayta va qayta ta'kidlaganimizdek til bilish yotadi.

Bugungi kun yoshlariga qo'yilayotgan talab ham aynan chet tillarini o'rganish ekanligini quyidagicha izohlash mumkin: Butun dunyo mamlakatlari bilan bevosita muloqot qilish, o'z mustaqil fikrini omma oldida ravon va tushunarli holda bayon qilib berish, dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning alohida o'rnini ta'minlash va uni mustahkamlashga xizmat qilish uchun ham xalqaro tillarni o'rganish dolzarb masaladir.

O'zbekistonning davlatlararo alohida o'rnini ta'minlash va mustahkamlash deganda shu narsa nazarda tutiladiki, global dunyoning madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy iqtisodiy sohadagi, shuningdek, tibbiyot va sport sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish va tahlil qilish, mamlakatimizning buyuk o'tmishi va boy madaniyatini, qolaversa, zamonaviy yoshlarning ulkan muvaffaqiyatlarini dunyo xalqlariga namoyish qilish kerak. Bunda esa albatta til ko'priki vazifasini bajaradi.

Lekin til o'rganishning faqat yaxshilikka xizmat qiladigan afzalliklarini sanab o'tish bilan bir qatorda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, davlat tili, milliy til, ona



tili kabi tushunchalar har doim hammamiz uchun birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i darkor. Har bir mustaqil mamlakatning o‘z davlat tili mavjud bo‘lganidek, o‘zbek tili O‘zbekiston davlatining istiqbolidan nishonadir. Boshqa tilni o‘zlashtirish o‘z tilidan foydalanishni cheklash degan xulosani keltirib chiqarmasligi lozim. Til davlat ramzi, millat ko‘zgidir. O‘z tilini yanada boyitish, sayqal berish, qo‘llanilish doirasini kengaytirish, bir so‘z bilan aytganda, uni kelgusi avlodga takomillashgan holda yetkazib berish har bir millatning insoniy burchidir. Chet tillarini mukammal o‘rganish va milliy til taraqqiyotig xizmat qilish uchun har birini o‘z o‘rnida qo‘llash bugungi jamiyatda tillar muvozanatini saqlashga asos bo‘ladi.

Talabalarga xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘shimcha manbalardan foydalanish, yordamchi o‘quv vositalar orqali talabalarning xorijiy tilga qiziqish va munosabatini yanada yuksaltirish, har bir darsni interaktiv, ya‘ni faol-talaba usullarida olib borish, darslardan so‘ng ularga qo‘shimcha darslar berish va bu jarayondan an‘anaviy usullardan keng foydalanishni taqozo qiladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilgan darslar jarayonida talabalarning chet tiliga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib, ularning mustaqil ijodiy ishlash malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirib boradi [J.Jalolov “Chet til o‘qitish metodikasi”, Toshkent-2012, 99-100 b].

“Innovatsion texnologiya” atamasining etimologiyasi ilmiy adabiyotlarida keltirilishicha, „innovatsiya” (chetcha innovation - kiritilgan yangilik, ixtiro, fantexnikada joriy etilgan “yangilik”) ma‘nosini ifodalaydi, “texnologiya” esa lingvodidaktik tushuncha sifatida “kam vaqt, kuch va mablag‘ sarflab, ta‘lim maqsadiga erishishni ta‘minlovchi sa‘y-harakatni ilmiy tashkil qilishning oqilona usullari majmui”ni ifodalaydi. An‘anaviy pedagogikada innovatsion texnologiyaning muayyan usullari sifatida Cinquain, Brainstorming, Case, Zigzag, Cluster, Project, Method, Mind Mapping kabi turlarini qo‘llash katta natijalar olib keldi [G.V.Rogova. Methods of teaching English].

RIVOJLANAYOTGAN YANGI PEDAGOGIKALAR

Quyida rivojlanayotgan yangi pedagogikalar haqida so‘z yuritamiz.

1) Ta‘limda sun‘iy aql. «Sun‘iy aql» atamasi (SA) kompyuter tizimlarini tavsiflash uchun ishlatiladi. Sun‘iy aql ta‘lim tizimlari maktablarga, kollejlarga va universitetlarga shiddat bilan kirib bormoqda. Ko‘pchilik odamlar sun‘iy aqlni robot o‘qituvchilar deb tasavvur qilsalar-da, uning ham foydali tomonlari bor. Talabalar uchun yaratilgan ilovalar aqlli o‘qitish tizimi, dialogga asoslangan o‘qitish tizimi, tadqiqotga asoslangan o‘quv muhiti, avtomatik yozishni baholash va suhbat agentlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan dasturlar kam rivojlangan bo‘lsa ham, o‘qituvchilarni o‘z bilimlarini oshirishlarida yordamchi dastur hisoblanadi. Shuni ta‘kidlash joizki, talabalar va o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi qobiliyatlarini inobatga olish kerak. O‘qituvchilar, o‘rganuvchi olimlar va boshqa manfaatdorlar ikkala tomonni ya‘ni sun‘iy aql ilovalarni ham, o‘qitish va o‘rganish usullari ham rivojlantirishga shug‘ullanishsa nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi.



2) Ochiq ma'lumotlar orqali o'rganish. 250 dan ko'proq milliy, mahalliy va shahar hokimiyatlari va global miqyosdagi tashkilotlar ma'lumotlarni bir-birlari bilan almashishyapti, yaratishyapti va o'z ishlarida foydalanishyapti. Ushbu tashkilotlar xalq tomonidan ishlatiladigan ma'lumotlarni ko'rishga intilishadi, ko'pgina yetuk xizmatlar ochiq ma'lumotlarni o'rganish uchun manbalarni taqdim etishadi.

Keyinchalik tashabbuslar ularni innovatsion ta'limga olib keldi. Xo'sh, savol tug'iladi - ochiq ma'lumotlar material sifatida nimani taklif qiladi? Uning o'rganish va o'qitishdagi ahamiyati qanday? Asosiy omil bu - haqiqiylik. Birgalikda ishlatiladigan ma'lumotlar yirik tashkilotlar ichida sodir bo'layotgan real jarayonlar natijasida paydo bo'ladi. Ko'pincha kasbiy ishda foydalaniladigan ma'lumotlar bizning hayotimizga va atrofimizdagi dunyoga real ta'sir qiladi. Ikkinchi omil – bu ma'lumotlar talabalarning salohiyatini oshirishdagi ahamiyatidir. Bu juda kuchli ruhiy ta'sir bo'la oladi. Talabalar o'z shaharlarida, qishloqlarida balki o'z sinflarida bo'layotgan voqea-hodisalarni yaqin va uzoqda sodir bo'layotgan voqea-hodisa bilan taqqoslay oladilar. Balki bu jarayonda ular muammolarni ham aniqlab, bu muammoga mahalliy yoki butun jamiyat e'tiborini jalb qilishlari ham mumkin. Bitta misolda, o'rta maktab o'quvchilari Italiyada davlat tomonidan moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida qurilish loyihalari uchun mukofotlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, ochiq ma'lumotlar o'quvchilarni bir-biri bilan bog'lagan, ma'lumotlar savodxonligi, oshkoralik va dalillarga asoslangan harakatlar natijasida kattaroq rag'bat uchun ijtimoiy harakatlar vujudga kelgan.

3) Ma'lumotdan foydalanish axloqi bilan shug'ullanish. O'sib borayotgan ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish axloqiy savollarning doimiy ravishda ko'payishi bilan birga keladi. Bu yerda axloqiy muammolar ko'p ma'lumotlarga, masalan, kim egalik qiladi, ma'lumotlarni qanday izohlash kerak, talabalar va professor-o'qituvchilarning shaxsiy hayoti qanday himoya qilinishi kerak? O'zlari xabardor bo'lmagan odamlarni tanqid qilish holatlari ham kuzatilgan. Ehtimol, bu faqat vaqt masalasidir. Bunday muammolarni oldini olish uchun ta'lim muassasalarida ma'lumotlar axloqiga tegishli siyosatni ishlab chiqish, ma'lumotlardan foydalanish uchun talabalardan rozilik olish, ularning o'zaro aloqalaridagi har qanday ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ta'limni boshqarish tizimi haqidagi fikrlari bilan tanishib, samarali o'qitish tizimini yaratish, shuningdek, talabalar va xodimlarni qo'llab-quvvatlash masalalari ham inobatga olinishi kerak. Hozirda rasmiy mashg'ulotlar mavjud emas. Buning uchun o'qituvchilar talabalarga imkoniyat yaratib berishi lozim. Hozirgi raqamli dunyoda institut va universitetlarning o'zaro ma'lumot almashishi ularning samaradorligini yanada oshiradi ["Innovating Pedagogy 2020" jurnali].

O'qituvchi juda ko'p yordam berishi mumkin, ammo talabalar haqiqatan ham ilgarilab ketishlari uchun sinfda o'tkazadigan vaqt yetarli emas; ularga darsdan tashqari vaqtlarda ham ko'plab mashqlar kerak.

O'qituvchi uchun talabalar darsdan tashqari vaqtlarda nima qilayotganini ko'rib chiqish va chet tilini takomillashtirish bo'yicha ko'rsatma berish juda muhimdir. Bu uy vazifasini belgilashdan tashqarida va talabalar har kuni chet tilida ko'nikmalarini



rivojlantirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan vositalar va manbalarni o'z ichiga olishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, metodning ijodiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining №1875 – qarori.
2. J.Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi", Toshkent-2012.-99-100 b.
3. "Innovatsion pedagogika-2020": Ochiq Universitetning innovatsion hisoboti
8. Milton Keyns: Ochiq universitet. -3 b.
4. Sh.Qosimov Pedagogikada ta'lim modellari Chop etilgan Respublika ilmiy amaliy konferensiya ŷMKXTTKMO va UKTI "Barqaror rivojlanish talablaridan kelib chiqqan xolda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini modernizatsiyalash" 2016 yil 13 aprel. -B179-182.
5. Sh.Kosimov, Pulatov G.E. Teacher Innovative Activity In Teaching Special Subjects International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology NOVATEURPUBLICA TION'S VOLUME 7, ISSUE 5, MAY 2020 EDITION ISSN: 2394-3696.www.ijiert. –P.282-284.